O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 327:004.8(519.5)

Yulduz I. ISLOMOVA,
Mustaqil izlanuvchi, o‘qituvchi-stajyor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent,O‘zbekiston
E-mail:yulduzislomova8993@gmail.com, ORCID: https://orcid.org/0009-0000-5637-7083

TDShU o‘qituvchisi, PHD, dotsent v.b. N.Alimova taqrizi asosida

FROM CYBER DIPLOMACY TO ARTIFICIAL INTELLIGENCE DIPLOMACY IN THE FOREIGN POLICY OF THE REPUBLIC OF KOREA

Annotation

This article analyses the formation and developmental stages of digital and artificial intelligence (AI) diplomacy in the foreign policy of the Republic of Korea. The scholarly article examines a two-track trajectory: the stages of formation and the institutional specificities of South Korean cyberdiplomacy, and the transformation of state strategies in the digital and artificial intelligence domains into foreign-policy vectors. The study further discusses the transition of Korean cyberdiplomacy from its developmental stage to the emergence of artificial intelligence diplomacy, technological-integrative diplomacy, and the foreign-policy orientations of AI strategies, alongside the diplomatic challenges these pose in foreign policy.

Keywords: Republic of Korea, cyberdiplomacy, artificial intelligence diplomacy, digital diplomacy, technological sovereignty, foreign policy, international relations, state strategies.

ОТ КИБЕРДИПЛОМАТИИ К ДИПЛОМАТИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ РЕСПУБЛИКИ КОРЕЯ

Аннотация

Настоящая статья анализирует формирование и этапы развития цифровой дипломатии и дипломатии в сфере искусственного интеллекта (ИИ) во внешней политике Республики Корея. Научная статья исследует двунаправленную траекторию: этапы становления и институциональные особенности южнокорейской кибердипломатии, а также превращение государственных стратегий в области цифровых технологий и искусственного интеллекта во внешнеполитические направления. Кроме того, рассматривается переход корейской кибердипломатии от этапа её развития к становлению дипломатии искусственного интеллекта, технологически-интегративной дипломатии и внешнеполитическим направлениям стратегий в сфере ИИ, наряду с обсуждением дипломатических проблем во внешней политике.

Ключевые слова: Республика Корея, кибердипломатия, дипломатия искусственного интеллекта, цифровая дипломатия, технологический суверенитет, внешняя политика, международные отношения, государственные стратегии.

JANUBIY KOREYA TASHQI SIYOSATIDA KIBERDIPLOMATIYADAN SUN’IY INTELLEKT DIPLOMATIYASIGACHA

Annotatsiya

Ushbu maqola Janubiy Koreya Respublikasi tashqi siyosatida raqamli va sun’iy intellekt (SI) diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi. Ilmiy maqola Janubiy Koreya kiberdiplomatiyasining shakllanish bosqichlari va institutsional o‘ziga xosliklari va raqamli va sun’iy intellekt sohasidagi davlat strategiyalarining tashqi siyosiy yo‘nalishlarga aylanishi kabi ikki bosqichli yo‘nalishni tadqiq etadi. Shuningdek, Koreya kiberdiplomatiyasida sun’iy intellekt diplomatiyasining shakllanishi, texnologik-integrativ diplomatiyasi va SI strategiyalarining tashqi siyosiy yo‘nalishlari muhokama qilish bilan birga tashqi siyosatda diplomatik muammolari

Kalit so‘zlar: Koreya Respublikasi, kiberdiplomatiya, sun'iy intellekt diplomatiyasi, raqamli diplomatiya, texnologik suverenitet, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, davlat strategiyalari.

Kirish. Zamonaviy taraqqiy etayotgan dunyoda xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, uning axborot xavfsizligi texnologik raqobat, va raqamli platformalarning siyosiy ahamiyati XXI asrning dastlabki 20-yillarida jadallasha boshladi. Ushbu jarayonlar o‘z navbatida davlatlararo xalqaro diplomatik faoliyatning mazmunini kengaytirish bilan birgalikda, o‘zaro muntazam hamkorlik aloqalarini tobora raqamli kommunikatsiya, axborot oqimlari va texnologik vositalarning rolini oshirihs bilan bog’lashni maqsad qila boshladi. Shunday davrda, kiberdiplomatiya va sun’iy intellekt diplomatiyasi xalqaro munosabatlarni o‘rganishning muhim tadqiqot yo‘nalishlariga aylandi. Janubiy Koreya Respublikasi hozirgi diplomatik jarayonlar jadallashgan davrda ushbu jarayonlarni o‘rganish uchun muhim misol hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Janubiy Koreya tashqi siyosati raqamli diplomatiya va sun’iy intellekt diplomatiyasi rivojlanishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda hozirgi kunda samarali tahlil qilinmoqda, shuningdek raqamli diplomatiyasining nazariy asoslari va sun’iy intellekt boshqaruvi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bjola va Holmes raqamli diplomatiyaning dastlabki tizimli bayonini beradi: texnologiya diplomatiyaning vositalarini o‘zgartiradi, maqsadlarini emas[1]. Bjola va Manorning 2024-yilgi to‘plami bu asosni yangilab, raqamli diplomatiyani amaliyot, jarayon va buzilish shakli sifatida talqin qiladi[2]. O‘rganilgan empirik yondashuvlar raqamli texnologiyalarning tashqi siyosatdagi rolini tushuntirsa-da, sun’iy intellekt standartlari, algoritmik boshqaruv va texnologik ta’minot zanjirlarining mustaqil diplomatik muzokara obyektiga aylanishini to‘liq bayon etmaydi. Bode o‘z tadqiqotlarida esa SI diplomatiyasiga oid mavjud izlanishlarni to‘rt mavzu – kuchlar muvozanati, dezinformatsiya, boshqaruv va etika – atrofida to‘planganini ko‘rsatadi va yangi analitik asoslar zarurligini asoslaydi[3].Tallberg va boshqalar empirik tashqi siyosatda kiberdiplomatiya va sun’iy intellekt diplomatiyasida, shu bilan birga normativ yondashuvlarning birlashtirish zaruriyatini talab qiladi[4]. Ulnicane va hammualliflar siyosat-freym tahlilini taklif etib, “boshqaruv” tushunchasi ritorikada qarama-qarshiliklarni yopish vositasi sifatida ishlatilishini ko‘rsatadi[5]. Bu uchala ilmiy tadqiqotlar o‘z negizida sun’iy intellekt boshqaruvining nazariy ramkasini asoslab beradi. Sohn o‘rta kuch ta’siri xalqaro tartibni shakllantirishda ishtirok etishga bog‘liqligini, biroq buyuk davlatlar uni faqat o‘z manfaatiga mos kelgunga qadar qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatgan bo‘lsa[6], Kim Sangbae bu tahlilni kiberxavfsizlikka ko‘chirish bilan shuningdek, tarmoqlar pozitsiyasiga asoslangan uch strategiyani ya’ni vositachilik, yig‘ish, to‘ldirish kabi turlarga ajratadi[7]. Kim Saeme esa

“G‘arb va G‘arbdan tashqari” paradigmasini tanqid qilib, asoslangan o‘rta kuch diplomatiyasi modelini taklif etadi[8,9]. Lee o‘rta kuchni funksional kategoriya emas, balki status siyosati sifatida tushunishni talab qiladi[10]. Mavjud tadqiqotlar koreya Respublikasi raqamli diplomatiyasi, kiberboshqaruv, SI siyosati va mamlkatning o‘rta davlat maqomini yoritadi. Biroq ushbu yo‘nalishlar ko‘pincha bir-biridan alohida tahlil qilinishi bilan ajralib turadi. Xususan, Koreya Respublikasida ichki raqamlashtirish tajribasi hali qanday qilib kiberfazodagi normativ faollikka, keyinchalik esa SI, ma’lumotlar, standartlarini qamrab oluvchi tashqi siyosatga aylangani yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Koreya Respublikasi hukumatining raqamli va sun’iy intellekt sohasidagi strategik hujjatlari, Tashqi ishlar vazirligining rasmiy bayonotlari hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilingan materiallarning mazmuniy tahlili amalga oshirildi va Janubiy Koreya tashqi siyosatida kiberdiplomatiya shakllanishidan hozirgi sun’iy intellekt diiplomatiyasiga otish davrigacha bo‘lgan jarayonlar tarixiy tahlil qilinadi. Xususan, Digital New Deal dasturi Koreya raqamli strategiyasi, Hind-Tinch okeani mintaqasi bo‘yicha strategiya va 2024-yilgi Seul SI sammitida qabul qilingan deklaratsiya tadqiqotning asosiy rasmiy manbalari sifatida ko‘rib chiqildi.

Koreyaning Hind-Tinch okeani strategiyasi bo‘yicha mustaqil tahlillar ham ushbu siyosatning mintaqaviy va strategik mazmunini yoritadi. Kiberxavfsizlik sohasidagi xalqaro normativ jarayonlarni o‘rganishda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan e’lon qilingan mas’uliyatli davlat xatti-harakatlariga oid hukumat ekspertlari guruhi hisoboti va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish xavfsizligi bo‘yicha 2021–2025-yillardagi ochiq ishchi guruhining yakuniy hujjati hisobga olindi[12]. Nazariy tahlilda raqamli diplomatiya bo‘yicha ilmiy adabiyotlar Janubiy Koreyaning o‘rta davlat diplomatiyasi va sun’iy intellektni global boshqarish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlardan foydalanildi Koreya kiberdiplomatiyasining rivojlanishi uch bosqichga ajratildi. Davrlashtirish mezonlari sifatida institutsional shakllanganlik darajasi, xalqaro normativ jarayonlardagi ishtirok va raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellektning tashqi siyosatga integratsiyalashuvi olindi.

Natijalar va muhokama. Mamlakatning bugungi dolzarb iqtisodiy va texnologik taraqqiyoti, raqamli davlat boshqaruvi hamda elektron hukumat sohasi bo‘yicha olib borayotgan tajribasi uning geosiyosiy xalqaro imidji va tashqi hamkorlik imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, 2020-yilda e’lon qilingan “Digital New Deal” dasturi raqamli infratuzilma, ma’lumotlar iqtisodiyoti va sun’iy intellekt bilan bog‘liq texnologiyalarni rivojlantirishni davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida talqin qilish bilan birga hozirgi kunda suni’iy intellekt bilan diplomatik munosabatlarni shakllantirishda ham muhim omil sifatida belgiladi[12]. Shuningdek, 2022-yilda 28-sentabrda Janubiy Koreya fan va Axborot-kommunikatsiya texnologiylari vazirligi tomonidan qabul qilingan “Koreya Respublikasi raqamli strategiyasi” (Digital strategy of South Korea) strategiyasi ushbu davlatning sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarda raqamli raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi va jahon yetakchisiga aylanitirishga qaratilgan loyiha sifatida qaralmoqda[13].Janubiy Koreya tashqi siyosatida sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik texnologiyalari dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi. Birinchidan, sun’iy intellekt xalqaro xavfsizlik, texnologik raqobat va global boshqaruv masalalari bilan tobora chambarchas bog‘lanmoqda. Ikkinchidan, kiberxavfsizlik bo‘yicha xalqaro normalarni ishlab chiqish jarayonida o‘rta davlatlarning ishtiroki va ta’sir imkoniyatlari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Uchinchidan, O‘zbekiston kabi raqamlashtirishni strategik ustuvorliklardan biri sifatida belgilagan davlatlar uchun Koreyaning raqamli davlat boshqaruvi tajribasini o‘rganish amaliy ahamiyatga ega.Tahlil natijalari ikki asosiy yo‘nalishda taqdim etiladi: birinchi yo‘nalish Koreya kiberdiplomatiyasining shakllanish bosqichlarini, ikkinchisi esa raqamli va sun’iy intellekt sohasidagi davlat strategiyalarining tashqi siyosiy yo‘nalishlarga ta’sirini qamrab oladi. Kiberdiplomatiyaning shakllanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari. Bu bosqichda “ochiq hukumat”, “elektron demokratiya” va “raqamli savodxonlik” kabi konsepsiyalar Koreya Respublikasi tashqi siyosiy imidjining tarkibiy qismiga aylandi. Koreya endilikda o‘z tajribasini rivojlanayotgan davlatlarga taklif qila boshladi, bu esa keyinchalik raqamli diplomatiyaning alohida – eksport va hamkorlik – yo‘nalishining asosi bo‘ldi.

Birinchi bosqich: institutsional shakllanish (1990-yillar oxiri – 2000-yillar). Dastabki bosqichning asosiy xususiyati ichki raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi bilan belgilanadi. Elektron hukumat tizimlari va raqamli davlat xizmatlarining kengayishi Koreyaning davlat boshqaruvi salohiyatini mustahkamladi va shuningdek, ushbu tajriba mamlakatning raqamli boshqaruv sohasidagi xalqaro hamkorligi, tashqi imidjini shakllantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik, ushbu davrni kiberdiplomatiyaning to‘liq shakllangan bosqichi sifatida emas, balki uning texnologik va institutsional asoslari vujudga kelgan davr sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bosqich: normativ faollik va xalqaro institutsional integratsiya (2000-yillar o‘rtasi – 2010-yillar) mazkur ikkinchi bosqichda kiberxavfsizlik xalqaro xavfsizlikning muhim masalalaridan biriga aylandi. BMT doirasida davlatlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mas’uliyatli foydalanishi, xalqaro huquq normalarining qo‘llanishi va davlatlararo ishonchni mustahkamlash masalalari tahlil qilinib, kiberxavfsizlik tushunchasi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Koreya davlati kabi rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro kiberboshqaruvdagi ishtirokini tahlil qilish imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi[8]. Jumladan, kiberxavfsizlik sohasida davlatlarning mas’uliyatli xatti-harakatlariga oid umumiy yondashuvlar BMTning 2021-yilgi hukumat ekspertlari guruhi hisobotida ham yoritilgan [10]. Bu hujjat kiberxavfsizlik bo‘yicha xalqaro muloqotning normativ asoslarini tushunish uchun muhim manba hisoblanadi. Uchinchi bosqich: texnologik-integrativ diplomatiya va sun’iy intellekt davri (2010-yillar oxiri – hozirgi davr). Ushbu bosqich Koreya raqamli diplomatiyasining mazmunan kengayishini ifodalaydi. Ushbu bosqichda SI diplomatiyasining institutsional jihati ham kuchaydi: Koreya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi 2025-yilda SI diplomatiyasi bo‘yicha maxsus bo‘linma tashkil etilganini e’lon qildi [11].

Shuningdek, vazirlik “AI in Diplomacy” tashabbusining to‘liq miqyosda yo‘lga qo‘yilishi haqida ma’lumot berdi. Raqamli diplomatiya endilikda faqat internet boshqaruvi va kiberxavfsizlik bilan cheklanmay, sun’iy intellekt, ma’lumotlar iqtisodiyoti, yarimo‘tkazgichlar va ilg‘or texnologiyalarni xalqaro boshqarish masalalarini ham qamrab olmoqda[2]. Sun’iy intellektning xalqaro munosabatlarga ta’siri yangi tahliliy yondashuvlarni talab qilmoqda, chunki ushbu texnologiya xavfsizlik, davlatlararo raqobat va xalqaro boshqaruv masalalariga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatadi[3]. Koreyaning 2022-yilgi raqamli strategiyasi ushbu texnologik o‘zgarishlarni davlat siyosati doirasida tizimlashtirishga qaratilgan hujjatlardan biri hisoblanadi[7]. 2024-yilgi Seul SI sammiti doirasida qabul qilingan deklaratsiya sun’iy intellektni xavfsiz, innovatsion va inklyuziv rivojlantirish bo‘yicha xalqaro muloqotning muhim namunasidir. Sammit doirasidagi ilg‘or SI tizimlari xavfsizligiga oid majburiyatlar esa ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikning amaliy yo‘nalishlarini belgilaydi.Raqamli va sun’iy intellekt sohasidagi davlat strategiyalari hamda ularning tashqi siyosiy yo‘nalishlari davlat strategiyalarining asosiy bloklari, Janubiy Koreyaning raqamli va SI sohasidagi davlat siyosatini shartli ravishda to‘rt blokka ajratish mumkin. Xususan ushbu to‘rt yo‘nalishlar dastlab ichki rivojlanish ehtiyojlariga xizmat qilgan bo‘lsa-da, keyinchalik xalqaro hamkorlik, texnologik standartlar va davlatlararo munosabatlar bilan bog‘liq tashqi siyosiy ahamiyat kasb etdi. Bu jarayonni raqamli davlat boshqaruvi va diplomatiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar doirasida tahlil qilish mumkin. Kiberdiplomatiya va SI diplomatiyasi bo‘yicha olib borilgan tahlillar va izlanishlar natijalari ushbu ikki vositalarni o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Zero, kiberdiplomatiyaning xalqaro xavfsizlik va normativ hamkorlik bilan bog‘liq tajribasi SI boshqaruvi masalalarini tahlil qilish uchun muhim institutsional va nazariy zamin yaratadi[11]. Shunga qaramay, xalqaro siyosiy maydonda SI diplomatiyasi algoritmik tizimlar, ilg‘or texnologiyalardan tashqari, sun’iy intellektni xalqaro geosiyosatda

boshqarish bilan bog‘liq vujudga keladigan yangi masalalarni ham o‘z ichiga oladi[3]. Xususan, hozirgi kunda sun’iy intellekt bo‘yicha xalqaro tashabbuslarda Koreya peshqadamlikni ilgari surmoqda va global normativ jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari,ushbu sohada bir nechta muammolar mavjud bo‘lib, raqamli va SI siyosatining turli davlat organlari vakolatlariga tegishli bo‘lishi strategiyalarni muvofiqlashtirishni murakkablashtirishi mumkin. Shu sababli texnologik siyosatni xalqaro munosabatlar bilan bog‘lashda idoralararo hamkorlik muhim ahamiyatga ega [2]. Strategiyalar ko‘pligi va ustuvorliklarning almashinuvi. Raqamli rivojlanish bo‘yicha turli dasturlarni yagona uzoq muddatli maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Koreyaning 2020-yilgi Digital New Deal dasturi va 2022-yilgi raqamli strategiyasini qiyoslash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qanday kengayganini o‘rganish imkonini beradi.Raqamli diplomatiya xalqaro sheriklik imkoniyatlarini kengaytirsa-da, biroq global texnologik raqobatdan kelib chiqadigan barcha cheklovlarni bartaraf eta olmaydi. Ushbu muvozanatni ta’minlash sun’iy intellektni xalqaro boshqarish bo‘yicha muhim vazifalardan biridir[4]. Xalqaro faollikning kadrlar bilan ta’minlanishi. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha diplomatik muzokaralarda ishtirok etish texnologik bilim va xalqaro munosabatlar kompetensiyalarini birlashtirishni talab qiladi[3]. Nazariy jihatdan maqola kiberdiplomatiya va SI diplomatiyasini yagona evolyutsion model doirasida tahlil qilishni taklif etadi. Ushbu yondashuv raqamli diplomatiya nazariyasi[1] va o‘rta davlatlarning xalqaro kiberboshqaruvdagi rolini o‘rganuvchi tadqiqotlar[8] bilan uyg‘unlashadi.Amaliy jihatdan Janubiy Koreya tajribasi raqamlashtirishni strategik ustuvorlik sifatida belgilagan davlatlar uchun samarali muhim saboqni ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Raqamli va sun’iy intelelkt diplomatiyasi rivojlanish evolutsiyasi Janubiy Koreya Respublikasi tashqi siyosatida ichki taraqqiyot, xalqaro hamdo‘stlik, xalqaro munosabatlar va global boshqaruv jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. Ushbu o‘rganilgan izlanishlar doirasida ushbu rivojlanish bosqichlari uch bosqichga ya’ni institutsional shakllanish, xalqaro normativ jarayonlarda faol ishtirok va texnologik-integrativ diplomatiyalarga ajratildi. Tashqi siyosatda raqamli va sun’iy intellekt sohasidagi davlat strategiyalari tahlili raqamli davlat boshqaruvi tajribasi bilan tashqi siyosiy maqsadlar o‘rtasidagi aloqani aniqlash imkonini beradi. 2024-yilda tashkil etilgan Seul SI sammiti va uning doirasida qabul qilingan deklaratsiya Koreyaning sun’iy intellektni xavfsiz, innovatsion va inklyuziv rivojlantirish bo‘yicha xalqaro muloqotdagi ishtirokini ko‘rsatuvchi muhim misollardir. Zero, sun’iy intellekt diplomatiyasining faqat texnologik rivojlanish bilan cheklanmasdan, xalqaro me’yorlar va ko‘p tomonlama hamkorlikni ham qamrab olishini ko‘rsatadi va SI diplomatiyasi keyinchalik dabvlatlar o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, Koreya tajribasi raqamli va SI diplomatiyasini faqat texnologik vositalar majmui sifatida emas, balki davlat siyosatida xalqaro hamkorlikni birlashtiruvchi tizim va xalqaro munosabatlarni shakllantirishda muhim vosita shaklida namoyon bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Bjola C., Holmes M. (eds.). The Digital Diplomacy: Theory and Practice // London; New York: Routledge, 2015. – 238 p. ISBN 978-1-138-84382-0.
2. Bjola C., Manor I. (eds.). The Oxford Handbook of Digital Diplomacy // Oxford: Oxford University Press, 2024. – 704 p. ISBN 978-0-19-285919-8.
3. Bode I. AI Technologies and International Relations: Do We Need New Analytical Frameworks? // The RUSI Journal. 2024. Vol. 169, No. 5. – P. 66–74. DOI: 10.1080/03071847.2024.2392394.
4. Tallberg J., Erman E., Furendal M., Geith J., Klamberg M., Lundgren M. The Global Governance of Artificial Intelligence: Next Steps for Empirical and Normative Research // International Studies Review. 2023. Vol. 25, No. 3. – Art. viad040. DOI: 10.1093/isr/viad040.
5. Ulnicane I., Knight W., Leach T., Stahl B. C., Wanjiku W.-G. Framing Governance for a Contested Emerging Technology: Insights from AI Policy // Policy and Society. 2021. Vol. 40, No. 2. – P. 158–177. DOI: 10.1080/14494035.2020.1855800.
6. Sohn Y. South Korea's Drive for Middle-Power Influence // Global Asia. 2016. Vol. 11, No. 1. – P. 44–48.
7. Kim S. (Sangbae). Cyber Security and Middle Power Diplomacy: A Network Perspective // The Korean Journal of International Studies. 2014. Vol. 12, No. 2. – P. 323–352. DOI: 10.14731/kjis.2014.12.2.323.
8. Kim S. (Saeme). Roles and Limitations of Middle Powers in Shaping Global Cyber Governance // The International Spectator. 2022. Vol. 57, No. 3. – P. 31–47. DOI: 10.1080/03932729.2022.2097807.
9. Kim S. (Saeme). A Principled Middle Power Diplomacy Approach for South Korea to Navigate the U.S.–China Rivalry // Washington, D.C.: Korea Economic Institute of America, 2021. – (Special Report No. 4). URL:https://keia.org/publication/a-principled-middle-power-diplomacy
10. Lee Y.W. Status Politics: The Changing Meanings and Practices of South Korea’s Middle Power Diplomacy // Global Policy. 2019. Vol. 10, No. 4. – P. 512–521.
11. United Nations General Assembly. Final Report of the Open-ended Working Group on Security of and in the Use of Information and Communications Technologies 2021–2025: A/AC.292/2025/L.1 // New York: UN, 01.07.2025. – (Draft text: A/AC.292/2025/CRP.1, 11.07.2025).
12. 과학기술정보통신부. 대한민국 디지털 전략.// Ministry of Science and ICT. Sejong: MSIT, 28.09.2022. URL: https://www.msit.go.kr/eng/bbs/view.do
13. OECD. Digital Government Review of Korea: Harnessing Digital and Data to Transform Government // Paris: OECD Publishing, 2025. DOI:10.1787/9defc197-en. URL: https://www.oecd.org/en